

THE SIGNIFICANCE OF USING METHODOLOGICAL GAMES IN TEACHING A SECOND LANGUAGE IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

(THE EXAMPLE OF RUSSIAN LANGUAGE)

Kasimova Shahlo Bahromovna

Head of the 18th Preschool Educational Organization of Kokand City

ABSTRACT	KEYWORDS
In this article, some comments are made about the pedagogical conditions of using methodical games in the teaching of a second language in the preschool education system and its importance in today's pedagogical system. Also, the article gives examples of some methodical games and describes the processes of their implementation.	Methodical games, educator, future, second language, fairy tale, children, speech development, conditions.

Introduction

Rus tilida ertaklar o'rgatish davrida tarbiyalanuvchilarni Rus tiliga qiziqitira olish, yaxshi tarbiyalay olish juda muhim. Buning uchun ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'rinlidir. Ta'limiy o'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularni qiziqib o'zlashtirishlariga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib o'sishlarida ahamiyatlidir.

Rus tilida ertaklar o'rgatish davrida ta'limiy o'yinlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarning:

- bilim olishga qiziqishlarini oshiradi;
- ma'naviy barkamol bo'ladi;
- tovush, bo'g'in va so'zlarni tez o'qishga o'rganadi;
- hozirjavob, topqirlikka o'rganadi.

Ta'limiy o'yinlar tarbiyalanuvchilarda sezgirlik, topqirlik, ziyraklik qobiliyatlarini o'stirish bilan bir qatorda taqqoslash, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi. Bog'cha tarbiyalanuvchilari ko'p so'zlar bilan tanishmaganliklari sababli zamonaviy multimedia vositalari yoki ko'rgazmali rasmlardan foydalangan ma'qul. Bundan tashqari bolaning rus tilidagi nutqini o'stirishda quyidagilarni nazarda tutish zarur:

- bolalarning savollariga doimo to'liq javob berish; bola siz bilan gaplashganida, uning fikrini diqqat bilan, bo'lmasdan eshitish;
 - bola uchun o'z taassurotlarini so'zlab berishga sharoit yaratish;
 - bolaning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
 - bolani mustaqil fikrlashga undash;
 - rus tilidagi badiiy ertaklar bilan tanishtirib borish orqali nutqini o'stirib borish;
 - bola nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitib borish;

• bola bilan soʻzlashganda toʻgʻri va aniq gapirish hamda boladan ham shuni talab qilish. Yuqorida keltirilgan ishlar bajarilgan taqdirda, bola oʻz fikrini toʻliq, aniq va ravshan qilib atrofda qilargalarga tushuntira oladigan boʻladi.

Taʼlim tizimi oʻz oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qoʻyadi. Buning uchun yangicha usullardan samarali foydalanishimiz lozim. Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilgʻor pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda tarbiyalanuvchi yoshlarning bilim olishiga boʻlgan qiziqish va ehtiyojlarini qondirish, bogʻchada bolalarga bilim berish, koʻnikma va malakalarini hosil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda taʼlim jarayonini yoʻlga qoʻyish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga ulkan hissa qoʻshadi. Bu interfaol usullardan rus tili oʻqituvchilari oʻz mashgʻulotlarida va bitiruvchi kurs bolalari malakaviy amaliyot davrida foydalansalar maqsadga muvofiq boʻladi. Rus tilida ertaklar oʻrgatish mashgʻulotlarida interfaol usullardan foydalanish bolalarlarni rus tiliga boʻlgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, mashgʻulotda doʻstona muhit yaratishga va bolalarlarni bir-birlariga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Rus tilida ertaklar oʻrganishda, bolalarni rus tiliga qiziqtirishdagi taʼlimiy oʻyinlar va usullardan foydalanishning quyidagi bir necha usullarini koʻrsatib oʻtmoqchimiz.

«Harfni esda saqlash» oʻyini

Bu oʻyinining asosiy maqsadi tarbiyalanuvchilarni tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish, esda saqlab qolishga oʻrgatish hisoblanadi. Tarbiyachi-tarbiyachi-oʻqituvchi oʻyinining oʻtkazilishi haqida tushuncha beradi va u oldingi mashgʻulotlarda oʻrganilgan rus tilidagi ertak qahramonlari ishtirok etgan rasmlil kartochkalarni tarqatadi hamda bosh harflari olinadi (A,B,B,D,G...). oʻzida esa A,B,B,D,G... harflari yozilgan kartochkalarni olib qoladi. Tarbiyalanuvchilarga olcha, olma, ot, anor, ari, archa, ayiq, delfin, daraxt, fil, fontan rasmlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi. Tarbiyalanuvchi stolga O harfli kartochkani qoʻyadi. Tarbiyalanuvchilar shu harfga mos rasmlil kartochkani harf yoniga qoʻyadilar va rasm nomini joʻr boʻlib aytadilar. Oʻyin shu tarzda davom etadi. Oʻyin keyingi mashgʻulotlarda yangi oʻtilgan ertaklarga doir soʻzlarning bosh harflari bilan oʻtkaziladi. Oʻyinga yetti-sakkiz daqiqa vaqt ketadi. Oʻyinni boshqa turli variantlarda ham oʻtkazilishi mumkin. Oʻyin orqali tarbiyalanuvchilar rus tilidagi ertak qahramonlari nomlarini xotirasida yaxshi saqlab qoladi.

Oʻyinning boshqacha varianti

Tarbiyachi-tarbiyachi-oʻqituvchi tarbiyalanuvchilarga istalgan harfni, masalan, A va JI harflarini koʻrsatadi. Tarbiyalanuvchilar Rus tilidagi ertak qahramonlari nomini topib gaplar tuzadilar. Bu ishlar ogʻzaki yoki yozma bajarilishi mumkin. Masalan:

«Soʻzni tez oʻqish» oʻyini

Bu oʻyin orqali tarbiyalanuvchilarda soʻzlarni tez oʻqish koʻnikmalari orttiriladi. Tarbiyachi-tarbiyachi-oʻqituvchi soʻz yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Har bir oʻyin ishtirokchisi oʻziga ajratilgan kartochkalarni olib, Rus tilidagi ertakdan soʻzni topadi va oʻsha soʻz qatnashgan gapni oʻqiydi. Agar tarbiyalanuvchi kartochkadagi soʻzni rus tilidagi ertakdan topa olmasa, boshqa kartochka olmaydi. Qaysi tarbiyalanuvchi soʻzni toʻgʻri va tez topsa, shu tarbiyalanuvchi oʻyin gʻolibi hisoblanadi. Masalan, guruhda 24 ta tarbiyalanuvchi boʻlsa shulardan birinchi kuni 12 nafar tarbiyalanuvchi qatnashadi, yaʼni tarbiyachi-oʻqituvchi 12 tarbiyalanuvchiga kamida 24 ta kartochka tayyorlaydi.

Masalan: qaysi tarbiyalanuvchi soʻzlarni Rus tilidagi ertakdan toʻgʻri va tez topa olsa oʻsha ragʻbatlantiriladi. Gaplarni oʻqish uchun 6-8 daqiqa vaqt beriladi.

Demak, Rus tilidagi ertaklarga oʻrgatish davrida tovushlar va harflar haqidagi qiziqarli oʻyinlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarning tovush harflarni, boʻgʻinlarni, soʻzlarni oson va qiziqib oʻzlashtirishlarida muhim vosita boʻladi.

Quyida rus tilida ertaklar oʻrgatish orqali bolalarni ushbu tilga qiziqtirish davrida tarbiyalanuvchilarning nutqlarini oʻstirishga qaratilgan qisqacha mashgʻulot namunalarini keltiramiz.

«JI» xarfining bosma va yozma shakllari tarbiyalanuvchilarga koʻrsatiladi. Harf va tovushning bir-biridan farqini aytadilar. (Tovushlarni aytamiz, eshitamiz, harflarni koʻramiz, yozamiz.) Harflarning bosh va kichik, bosma va yozma shakllarini bir-biriga qiyoslaydilar.

Tovushning undosh tovushlar sirasiga kirishini aniqlaydilar. Soʻng bolalar «JI» tovushining artikulyasiyasini kuzatib, tangay, lab va tishning jipslashuvini aytadilar va nutq organlarini shu xolatga keltiradilar. Tarbiyalanuvchilarning «JI» tovushini toʻgʻri talaffuz qila olishlarini aniqlagach, rus tilidagi ertakdan «JI» tovushi ishtirok etgan soʻzlardan topish buyuriladi. Soʻzlarni topishda qiynalmasliklari uchun ismlardan, hayvon-qushlardan, oziq-ovqat nomlaridan ayting, deya yoʻllanma beriladi. Xat taxtaga yozilgan rus tilidagi ertakni tarbiyachi-oʻqituvchi oʻzi oʻqib beradi. Ertakdagi notanish soʻzlarni ustun shaklda yozib, oldin tarbiyachi-oʻqituvchi oʻzi oʻqib beradi. Keyin joʻr boʻlib, tarbiyalanuvchilar oʻqiydilar. Lugʻat ishi oʻtkaziladi. Har bir soʻz izohlanadi.

Xat taxtadagi ertak tarbiyalanuvchilarga oʻqitilgandan soʻng qisqa savol-javob oʻtkaziladi. Yangi oʻrganilgan soʻzlar boʻyicha lugʻat ishi oʻtkaziladi. Rus tilida ertak tarbiyalanuvchilarga mustaqil oʻqitiladi. Rasm asosida ertakni qayta hikoya qildiriladi. Ertakka mos maqol yoki topishmoq aytiladi. Rus tilida ertaklar aytishga oʻrgatish mashgʻulotlarida turli xil maqol-topishmoqlardan oʻrinli foydalanish bolalarning nutq malakalarini shakllantiradi. Mashgʻulotni mustahkamlash qismida oʻyinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bolalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish

Rus tili mashgʻulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish oldimizda turgan muhim vazifadir. Biz bilamizki, hozirgi taʼlim jarayonida tarbiyalanuvchi subyekt boʻlishi lozim. Mashgʻulotlarga qoʻyilgan eng muhim talablardan biri tarbiyalanuvchini mustaqil fikrlashga oʻrgatishdir. Koʻzlangan maqsadga erishish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish mumkin:

“Muammoli vaziyat yechimi”.

Bu usulni qoʻllash uchun ertakning boshlanishi oʻqib beriladi qanday yakun topishi tarbiyalanuvchilar, hukmiga havola qilinadi. Masalan:

Много лет назад купец оказался в долгу перед ростовщиком, жестоким и неприятным человеком. У купца был только один ребенок, дочь, которую он очень любил.

Однажды ростовщик явился к купцу с ультиматумом: либо купец должен отдать долги, либо отправиться в долговую тюрьму, либо разрешить ростовщику жениться на его дочери.

Поняв, что купец и его дочь пришли в ужас от этой идеи, ростовщик предложил им обоим пройти с ним по гравийной дорожке и еще немного обсудить эту идею. Здесь он предложил, чтобы судьба решила вопрос.

«Я возьму с этой дорожки два камешка, один черный и один белый», — сказал он, наклоняясь, чтобы поднять два камня. «Я брошу их в этот мешок. А затем, если ваша дочь согласится, она не глядя выберет один из камней из мешка. Если она выберет белую, я прощу

все твои долги, и ты и твоя дочь больше никогда меня не увидите. Однако, если она выберет черный камень, твоя дочь будет моей.

Купеческая дочь растерялась. Она не доверяла ростовщику. Она была почти уверена, что он положил в сумку два черных камня. Ее положение казалось невозможным. Что ей делать? (В этот момент мы можем обсудить в небольшой группе, что должна делать дочь торговца.)

Правильный ответ: дочь сунула руку в мешок, вытащила камень и «случайно» уронила его на гравийную дорожку. «Извините, — воскликнула она, — но вы можете определить цвет того, кто остался в мешке».

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida, biz rus tili mashg'uloti jarayonida muammoli ta'limdan foydalanishimiz lozim. Shu maqsadda bolalarga quyidagi ertakni o'qish topshiriladi.

Однажды отец послал сына продать овчину. «Верните мне кожу, — сказал он, — и деньги за нее». Молодой человек пытался продать шкуру, но тщетно, потому что никто не хотел покупать ее на таких условиях. Поэтому он решил вообще не идти домой, потому что боялся своего отца. Подойдя к мосту через реку, он встретил девушку. Увидев, что Джеку очень грустно, она спросила его: «Могу я спросить, почему ты такой грустный?».

«Мой отец дал мне шкуру, — сказал Джек, — и я должен вернуть и шкуру, и деньги за нее».

Ertakni shu yerda to'xtatib, qiz yigitning muammosini qanday yechib berishini bolalardan so'rashimiz lozim. Bolalar vaziyatni har xil yechadilar, o'z fikrlarini bayon qiladilar. Agar voqea quyidagicha yechilsa to'g'ri hisoblanadi: «Девушка отнесла шкуру к реке и, обмыв ее в воде, взяла с нее шерсть. Она заплатила Джеку за шерсть и вернула ему шкуру, чтобы тот отнес ее домой.

Yana bir vaziyatning yechimi bolalarga havola qilinadi:

Однажды старый Гобборн сказал своему сыну следовать за ним, потому что он хотел построить прекрасный замок. Пока они шли, старик сказал своему сыну: «Можешь ли ты сократить мне путь?» Его сын ответил отрицательно, и отец приказал ему вернуться домой.

Когда он сказал жене, почему он пришел домой один, жена решила его проблему, но как?

Bu ertakni ham diqqat bilan tinglagan bolalar muammoni quyidagicha hal qilishlari mumkin:

Жена рассказала ему историю, и он пересказал ее отцу. Когда он закончит свой рассказ, они подойдут к концу своего пути. Рассказ мог бы сократить самую длинную дорогу.

Fikrlar bahosi. Пращение «Прояснение ценностей».

Bu usul katta guruh tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga o'zlarining fikrlarini ochiq bayon etish imkonini beradi. Bu usul katta guruh tarbiyalanuvchilari bilan mashg'ulotdan tashqari mashg'ulotlarda ishlatiladi.

Tushuntirish bahosi. (Уточнение ценностей)

Bu usulni qo'llashning ahamiyati shundaki, har bir bola yoki tarbiyalanuvchi rus tilidagi ertakda berilgan shartlar bo'yicha o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar. Agar shu fikrga to'liq qo'shilsalar +2 sonini belgilashadi, agar shu fikrga butunlay qarshi bo'lsalar -2 sonini belgilaydilar.

- Вы согласны или не согласны с каждым из приведенных ниже утверждений? Поставьте галочку под номером, который показывает, как вы себя чувствуете.

+2 = Полностью согласен: +1 = Согласен: 0 = Нет мнения: -1 = Не согласен: -2 = Полностью не согласен +2 +1 0 -1 -2.

Quvnoq topishmoqlar. (Веселые загадки)

Tarbiyalanuvchilarga rus tilidagi ertaklardagi soʻzlardan foydalanib topishmoqlar oʻrgatish, rus tilini oʻrgatishda muhim ahamiyatga ega, ular oʻzlariga notanish boʻlgan soʻzlarni oʻrganadilar va oʻylab topishmoq javobini topadilar. Topishmoqlarni hazil tariqasida ham tuzish mumkin.

Masalan:

1. Какие животные в сказке большие/маленькие?
2. У каких животных в сказке есть хвост/уши?
3. Какие животные едят других животных в сказке?
4. У каких животных в сказке две/четыре ноги/нет ног?

Решения загадок

1. Медведь/лягушка.
2. Уважаемый.
3. Лев.
4. Птица/крокодил/змея.

Mimika (Мимирование)

Bu oʻyin yuqori guruh tarbiyalanuvchilari uchun moʻljallangan boʻlib, bolalarlar koʻp soʻzlarni bilishlari yaʼni lugʻat boyligi koʻp boʻlishi kerak. Bu oʻyin rus tilidagi ertakka oid boʻlishi mumkin. Boshlovchi biror ertak qahramoni egasi kasbiga doir harakat qilib koʻrsatadi, qolganlar bu soʻz qaysi ertak qahramoni kasbiga oid ekanligini topishlari kerak, aks holda ular savol berishlari mumkin:

Вы работаете с детьми? Вы работаете по вечерам?

Keyingi kartochkalarimiz shartlari mimikalar yoki harakatlar orqali bajarilgani uchun мимирование карты deb ataladi. Bunda kartochka olgan tarbiyalanuvchi kartochkaga yozilgan soʻzlarni mimikalar orqali koʻrsatishlari, qolgan tarbiyalanuvchilar esa soʻzlarni topishlari va rus tilida aytishlari kerak boʻladi.

Масалан:

Карточка №1.

1. спящий
2. приготовление пищи
3. злой
4. поймать

Карточка №2.

1. голодный
2. укус
3. летать
4. съесть

Bunday mashqni Soʻzlar tushuntirilgach oʻtkazish mumkin.

Kviz kartochkalarini rus tilidagi ertaklarda qoʻllash bolalarlarni oʻylashga, axborot olishga, axborot berishga, birgalikda ishlashga oʻrgatadi. Eng muhimi, bilim samaradorligini oshiradi.

Tezkor javob. (Быстрые ответы)

Rus tilida ertaklar oʻrgatish mashgʻulotlarida “Tezkor javob” usulidan foydalanish ham bilim samaradorligini oshirishda yordam beradi. Bu usulni bir ertakni yoki bir ertak boʻlimni oʻtib tugatgandan keyin oʻtiladi.

Shunga oʻxshash savollar har rus tilida ertaklar oʻrgatishda takrorlansa tarbiyalanuvchilar tili oʻrganilayotgan ertaklar haqida koʻp maʼlumotga ega boʻlishadi. Bu usulning yana bir jihati shundaki, til materiallari avtomatlashadi. Rus tili mashgʻulotlarida bu usuldan foydalanayotganda bolalarga tanlash huquqini ham berish ham toʻgʻri boʻladi chunki, bunday holatda guruhlar oʻzlari tanlagan mavzuni olib, shu mavzu haqida gapirishadi. Bu usulning afzalligi shundaki, tarbiyachi-oʻqituvchi ertakni osongina oʻzgartirishi mumkin.


Men kimman? (Кто я?) o'yini

Bu o'yinda tarbiyachi-o'qituvchi o'rganilgan rus tilidagi ertakdagi mashhur ertak qahramoni haqida ba'zi ma'lumotlarni beradi. Bolalar uning kimligini topishi lozim. Masalan:

1. Когда-то я был царем над всеми животными. Кто я? Ответ: Змея.
2. Я был слугой, который грыз всех животных и находил самое вкусное из всех. Ответ: Комар.
3. Я слетел и укусил комара за язык. Ответ: Ласточка.
4. Я спал в тени дерева, а мама готовила еду рядом. Ответ: Малыш.

Rasmlar so'zlaganda «Когда говорят картинки»

Bu usulda rus tilida ertaklar o'rgatish ancha qulay bo'lib, rus tilida ertaklar o'rgatishda bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. Masalan;



Жираф

Павлин

Медведь

Слон

Почему слон так популярен?

Однажды животные в зоопарке говорят о своем друге слоне. Жираф говорит: «Я не понимаю. Почему слон так популярен? Я самое высокое животное в этом зоопарке». Павлин говорит: «Я не понимаю. Почему слон так популярен? Я самое красивое животное в этом зоопарке». Медведь говорит: «Я не понимаю. Почему слон так популярен? Я самое сильное животное в этом зоопарке».

В этот момент приходит слон. Он самое большое и сильное животное в зоопарке. Но он всегда скромн*.

Rus tili o'qituvchilari rus tili o'rganuvchilarining yosh xususiyatlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda o'yin shartlarini oson yoki murakkablashtirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахметжанова З.К. О динамике изменения исследовательского подхода к изучению антропонимов // Вестник ПГУ.- 2010.- №1.С. 21–25.
2. Баженова Е.Ю. Интегрированный подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13(54). – С. 31-35.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.– Б. 11–15.
4. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.

5. Бебянин В.П. Основы психолнгвистическо диагностики(модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – 314 с.
6. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
7. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122- 125.